

O‘Rta Osiyo Xalqlari Tarixida Ko‘Chmanchi Chorvador Qabilalarning Tutgan O‘Rni

**Aliboyev Dilshod Davron o‘g‘li, Abdumatov Alisher Akhmadkulovich,
Rayimjonov Ismoiljon Xoshimjon o‘g‘li**
Guliston Davlat Universiteti o‘qituvchilari

Annotatsiya: This article analyzes the governance system of the nomadic peoples of Central Asia. It examines the political structure of nomadic societies, the rules of military democracy, popular assemblies, hereditary kingdoms, and their role in state governance. During the study, based on various historical sources, the factors that influenced the formation of the nomadic governance system, including the interaction with peasant and urban communities, are studied. The specific aspects of the political organizations and governance institutions of nomadic peoples are also highlighted.

Kalit so‘zlar: Central Asia, nomads, military democracy, people's assembly, state administration, political system.

Kirish.Gerodot: "Massagetlar oddiy kishilar, Fors to‘kin-sochinliklaridan bexabar", deb yozgan bo‘lsa, Arrian "... o‘ta qashshoq holda yashaydi, kambag‘al va haqparvar kishilar, yagona yutug‘i yoy va o‘q, ovqati go‘sh va sut, kiyimlari teridan, hukmdorlari ham, oddiy kishilari ham baravar, mehmondo‘st, tinchlikparvar va ozoddir.

Sak qabilalari to‘g‘risida ham shunga o‘xshash ma‘lumotlar bor. "Qishloq va shaharlari yo‘q. Aravada yashashadi, faqat chorvachilik bilan shug‘ullanadi". Ktesiy esa saklarning dehqonchilik bilan shug‘ullanishi va oz bo‘lsa-da, shaharlari borligi xususida yozgan.

Ko‘chmanchilar dunyosida ilk sinfiy munosabatlar va davlatchilikning rivojlanishi to‘g‘risida fanda har xil g‘oyalar kurashi mavjud. A.I. Pershis va A.M. Xazanovlar, "ko‘chmanchilar o‘z holicha faqat ilk sinfiy munosabatlar darajasigacha o‘shishi mumkin. Keyingi rivoji faqat qo‘shni dehqon va shahar jamoasi ta‘sirida rivojlanadi" degan bo‘lsa, Yu.V. Pavlenko, "ko‘chmanchilar dunyosi o‘z holicha, ya‘ni sivilizatsiyalashgan qo‘shni jamoalardan tashqarida rivojlanganda, ularga bo‘ysungan dehqon va shahar jamoalari bo‘lmaganda, ulardan soliqlar yig‘ilmaganda va nihoyat ularning bir guruhi o‘troqlashmaganda, o‘troqlashgan hududlarda shahar madaniyatining paydo bo‘lishi jarayonlari kechmaganda ko‘chmanchilar jamoasi hattoki ilk sinfiy munosabatlar darajasiga ham chiqa olmagan bo‘lardi", deb hisoblaydi.

V.M. Masson Ahamoniylargacha bo‘lgan O‘rta Osiyoning siyosiy xaritasini quyidagicha tasavvur qiladi: «Baqtriyada yirik siyosiy birlashma (davlat) bo‘lgan, uning madaniy va siyosiy doirasi Marg‘iyona, mumkinki, Ariylar va So‘g‘diylargacha yoyilgan. Ikkinchi siyosiy kuch ko‘chmanchilar dunyosidir. Ularning har xil konfederatsiyasi bo‘lgan va turli ko‘chmanchi qabilalarni birlashtirib turgan. Mil. av. VI asr o‘rtalarida gegemonlik rolini Massagetlar bajargan.

Materiallar.

Ko‘chmanchilik tarixiy shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tizimi va xo‘jalik-madaniy tur sifatida miloddan avvalgi II ming yillikda shakllangan. Ko‘chmanchi hayot tarzining asosi chorvachilik edi, odamlar yangi yaylovlarni izlab asosiy yashash joylaridan ko‘p kilometr uzoqqa

ko'chib yurishardi. Ko'chmanchi chorvachilik Markaziy Osiyo dashtlarida uning tarixi davomida hukmron hayot tarzi bo'lgan. Tashqi kuzatuvchilar ko'pincha uni iqtisodiy jihatdan kam samarali, ko'chmanchining mehnati dehqonniki bilan taqqoslaganda sodda shakl deb hisoblagan bo'lsalar-da, aslida bu dasht resurslaridan foydalanishga mo'ljallangan murakkab ixtisoslashuv edi. Shunday bo'lsa-da, bu hayot tarzi baribir atrofdagi o'troq sivilizatsiyalar uchun qoloq va begona bo'lib qolgan. Ko'chmanchilar tarixi va ularning atrofdagi hududlar bilan aloqalari, ko'chmanchilarning harakat tsikllarini, chorvachilik talablarini, iqtisodiy cheklovlarni va asosiy siyosiy tuzilmani isbot talab qilmas darajada qabul qilganligi asosida rivojlangan edi.

Akademik A. Asqarov O'rta Osiyo saklari aslida Avesto turlari bo'lib, mil. avv. II ming yillikning o'rtalarida oriylarning janubga migratsiyasi davrida Yevroosiyo dashtlaridan O'rta Osiyoga kirib kelgan turkiy Andronovo qabilalari ekanligini ilmiy isbotlagan. Ammo dastlab, ularning eroniy til muhitiga tushib qolgan qismigina eroniylashadi, lekin, ko'pchilik turkiy etnik guruhlar dastlab "orolcha" sifatida yashab, uzoq asrlar davomida o'z tillarini yo'qotmaganlar. Keyingi asrlarda Yevroosiyo dashtlarining jangavor xalqi - turk qabilalarining O'rta Osiyoga kirib kelishining oxiri bo'lmaydi, aksincha yanada avj oladi. Ayniqsa, ularning Amudaryo o'rta havzalarigacha bo'lgan hududlarda ta'sir doirasi kengayib, O'rta Osiyoning shimolida, Sirdaryoning o'rta va quyi havzalariga kelib o'rtnashgan chorvador turkiy qabilalar sekin-asta o'troqlashib, antik davrga kelganda o'ziga xos madaniyat (Qovunchi madaniyati) tarkib topadi, turkiy til esa bu mintaqalarda aholining jonli tiliga aylanadi. Bu rasmiy tarixning bugungi kundagi tarixiy haqiqatidir. O'zbekiston tarixchi - arxeologlari, etnolog va lingvistlarining bugungi kundagi vazifasi bu jarayonni ilmiy asosda yoritib, o'zbek xalqi ajdodlarining tag zamini yuksak o'troq madaniyat sohiblari bo'lganligini, ularning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalarini va o'zbek xalqining turkiy tilli xalq sifatida shakllanish jarayonlarini xolis, ortiqcha milliy ehtirosiz, ilmiy asosda yaratib berishlikdir.

Qadimgi sug'diylar va O'rta Osiyoning boshqa eroniy tilli qavmlari qadimdan turkiylar bilan (tildan boshqa) har tomonlama qardoshdirlar. Ularning O'rta Osiyoni janubiy va markaziy viloyatlarida makon topganlari ikki tilda so'zlashganlar. Bu holat moddiy madaniyatda, yozma manbalarda yaxshi kuzatiladi.

Tadqiqot va usullar.

Keyingi 30-40 yillar davomida xitoylik mutaxassislar Yapon olimlari bilan hamkorlikda Qadimgi Xitoy podshohliklarining 24 sulolaviy tarixini o'rganishda katta yutuqlarga erishdilar. Ushbu sulolaviy tarixning dastlabki bir necha jildlari Yevroosiyaning qadimgi turkiy qabila va elatlari tarixi bilan bog'liq. Ushbu asarlar asosida bitilgan Xitoy ensiklopediyalarida Yevroosiyo dashtlarining chorvador Andronovo madaniyati aholisining tili masalasida aniq ma'lumotlar keltirilgan. Bronza davrining Andronovo madaniyati aholisining yodgorliklari O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekistonning har bir viloyati hududlaridan o'nlab-yuzlab joylardan topib o'rganilgan.

Sovet davri tarixshunosligida ularni eroniy tilli aholi deb talqin qilinar edi. Biroq, ularning tili masalasidagi yangi ma'lumotlar Yevroosiyo dashtlarining chorvador aholisi, shuningdek, Andronovo etnomadaniy qatlamga tegishli O'rta Osiyolik bronza davri chorvadorlari turkiyda so'zlashganliklarini tasdiqlaydi. Mana shu birlamchi yozma manbadan olingan ma'lumotlar o'zbek xalqi etnogenezining boshlang'ich nuqtasini mavjud qarashlarga ziddi o'laroq, antik davrdan so'nggi bronza davriga qadimiylashtirish imkoniyatini berdi.

Ko'chmanchi chorvachilikning paydo bo'lishi.

Ko'chmanchi so'zining etimologiyasi. Ko'chmanchi so'zi "ko'chmoq" fe'lidan kelib chiqqan, bu turkiy so'z rus va ukrain tilidagi "kazak" so'zi aynan ushbu so'zdan kelib chiqqan. Ruslardagi Koshevoy familiyasi ham ushbu ma'noni bildiradi.

Ko'chmanchi chorvadorlar borasida ma'lumot beruvchi yozma manbalar jumlasiga Gerodotning Tarix asarini kiritish mumkin. Unda muallif, ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullangan massagetlar haqida quyidagicha yozadi: "Massagetlar oddiy kishilar, Fors to'kin-sochinliklaridan bexabar", deb yozadi. Yana bir yunon tarixchisi Arrian Aleksandrning harbiy yurishlari nomli

asarida massagetlar "... o'ta qashshoq holda yashaydi, kambag'al va haqparvar kishilar, yagona yutug'i yoy va o'q, ovqati go'sht va sut, kiyimlari teridan, hukmdorlari ham, oddiy kishilari ham baravar, mehmondo'st, tinchlikparvar va ozoddir" deb yozadi.

Sak qabilalari to'g'risida ham shunga o'xshash ma'lumotlar bor. "Qishloq va shaharlari yo'q. Aravada yashashadi, faqat chorvachilik bilan shug'ullanadi". Ktesiy esa saklarning dehqonchilik bilan shug'ullanishi va oz bo'lsa-da, shaharlari borligi xususida yozgan.

Markaziy Osiyo ko'chmanchi xalqlarini nomlari keltirilgan yozma manbalar va tadqiqodlarimiz natijasida, ularning nomlarini to'plab yaxlit bir jadval shakliga keltirib, dissertatsiyaning Ilova qismida sizning hukmingizga havola etamiz. Ushbu nomlarning har biri tarixini o'rganish va tahlil qilish bizning oldimizga "O'zbek davlatchiligi tarixi" borasida olib borilayotgan va endigi tadqiqodlarimiz mobaynidagi muhim jihatlardan hisoblanadi .

Natijalar.

Akademik A. Asqarovning yozishicha, O'rta Osiyo chorvadorlari chorvachilik xo'jaligining 4 bosqichini bosib o'tganlar.

No	Bosqich	Davri
1	Xonaki chorvachilik	neolit
2	Yaylov chorvachiligi	Eneolit, ilk bronza
3	Yarim ko'chmanchi chorvachilik	Rivojlangan bronza
4	Ko'chmanchi chorvachilik	So'nggi bronza

Chorvachilik xo'jaligining ilk bosqichi "xonaki chorvachilik" deb atalib, bu bosqich mintaqaviy rivojlanishning har ikkalasiga, ya'ni dehqonchilik va chorvachilik zonalariga xarakterli bo'lib, jamoaning har bir juft oila xo'jaligida bir-ikki yirik shohli hayvon va bir necha mayda shohli hayvon boqilgan, uning sut va qatig'i hamda go'shti esa oila tebratishga yetgan. Chorvachilikning ushbu bosqichi arxeologik davrlashtirishda neolit davriga xos bo'lib, ulardan keladigan hosil dehqonchilik jamolarida ziroatchilikga qo'shimcha daromad, dasht zonasi chorvadorlar jamoasida esa, daromad manbaining asosini tashki etgan.

Demak, dehqonchilik zonalarida xonaki chorvachilik ziroatchilik bilan birga olib borilgan, dasht mintaqalarida esa bu zonaning tabiiy-geografik sharoiti tufayli asosiy e'tibor chorvachilikga qaralib, chorvachilik oila mulkining asosiy daroma manbaiga aylanadi. Oqibat natijada, chorvachilik rivojlanib, har bir urug' jamoasi ihtiyorida yirik va mayda shoxli hayvonlar bir necha bor ko'payib, ularni boqish uchun keng yaylovlarga egalik qilish zaruriyati tug'iladi. Chorvachilikning bu turi fanda "yaylov chorvachiligi" deb nomlanadi.

Bu bosqichda chorva ertalab jamoa yaylovlariga haydalib, kechga tomon chorvador qo'nim topgan makonda maxsus tayyorlangan qo'ralarga qaytadi. Bu davr chorvachiligi eneolit va ilk bronza davri uchun xarakterlidir.

Chorvachilikning uchinchi bosqichi "yarim ko'chmanchilar" deb atalib, bu bosqichda katta patriarxal oila(Avestodagi "nafa") jamoalarining chorva mulki yanada ko'payib, bir necha otarlarni tashkil etadi. Chorvaning kundalik hayotga keraklari qishlov makonida qoldirilib, ularning aksariyati erta bahorda uzoq joylarga, maysazor adir va tog' zonalaridagi yaylovlarga haydab ketiladi. Kech kuzda esa chorva qishlov makoniga qaytarilib, maxsus qo'tonlarda saqlangan. Bu davr chorvachiligi rivojlangan bronza davriga xosdir.

Safar vaqtida ularga qaraydigan cho'ponlar va sero't yaylovlar qidiruvchi otliq navkarlar guruhi podalarni qo'riqlash bilan shug'ullanganlar. Chorvador jamoalarida maxsus guruh qishlov makonlarida yozi bilan qishga xashak tayyorlash bilan shug'ullanganlar. Qadimgi Turon sharoitida bu holat, ya'ni chorva uchun qishga yem-xashak tayyorlash chorvachilik zonalarida hozirgacha davom etadi.

Muhokamalar.

Chorvachilikning to'rtinchi bosqichi "ko'chmanchi chorvachilik" deb atalib, endi chorvador yashash tarzida doimiy muqum qishlov makon bo'lmaydi. Bu davrda chorvador aholining chorva mulki haddan tashqari ko'payib, qabila chorvasining asosini mayda shohli hayvonlar tashkil etadi. Chorva asosan badavlat sipohiyalar qo'lida to'plana boshlaydi.

Tarixda ular oriylar nomi bilan atalib, chorva mulk egasining asosiy mashg'uloti chorva uchun yaylovlar axtarish, qurol-yarog' yasash uchun metallurgiya konlarini qidirish va ularni qo'lga kiritishdan iborat bo'lgan.

Ko'chmanchi chorvachilik bosqichi davrida chorvadorlar jamoasida mulkiy tabaqalanish jarayoni jadal kechgan. Mulkdorlarning eng yirigi aslzoda urug' va qabila sardorlari bo'lib, ular jamoaning oliy toifasi hisoblangan.

Ular orasidan jamoaning diniy va dunyoviy udum va marosimlarini boshqaruvchi guruh tarkib topib, ular o'zlarining hayotiy tajribalari bilan boshqalardan ajralib turgan ikkinchi oliy aslzodalar toifasini tashkil etishgan.

Jamoaning uchinchi mulkdorlar toifasi harbiylar bo'lib, Avestoda ular oriylar nomi bilan atalgan. Ular erkin, ozod, qurolli jangavor otliqlardan tashkil topgan bekszodalardan iborat bo'lgan. Ularning asosiy vazifasi yuqorida ta'kilanganidek, yaylovlar axtarish, qurol-yarog' uchun metallurgiya konlarini qidirish va ularni qo'lga kiritishdan iborat bo'lan.

To'rtinchi toifa jamoaning cho'ponlari bo'lib, ular erkin jamoa a'zolari hisoblanishgan. Ularning vazifasi yaylovlarda chorvani boqish va chorvani sug'orish hamda qo'tonlarga qamashdan, mayda shohli hayvonlarning yungini olishdan iborat bo'lgan.

Beshinchi toifa mulksiz oila xizmatchilari bo'lib, ular oilaning kichik a'zolari hisoblanishgan. Ammo yemoq-ichmoqda erkin, lekin jamoa a'zolariga tegishli haq-huquqlardan mahrum oilaning kichik a'zolari hisoblanishgan

Xulosa. Mana shu toifalarga bo'lingan chorvadorlar jamoasiga xos yashash tarzii quyidagicha tasavvur etish mumkin. Ko'chmanchi chorvachilik bosqichida mo-mulkning haddan tashqari ko'payib ketganidan chorva mollarini boqish uchun yangi o'tlov yaylovlar axtarish masalasi hayot-mamot masalasiga aylanadi. Bekzoda oriylar otryadi yangidan-yangi yaylovlar axtarish yo'lida o'zga chorvadorlar otryadlari bilan kurashib, zafarli janglar olib boradilar. Safar janglarda g'alaba bilan yakunlangach, bir necha ming tuyoqli podalarni yangi makonlarga ko'chirish boshlangan.

Ko'chish vaqtda oldingi safda jangovar otliq otryad, uning ortidan cho'ponlar va soqchi otryad qurshovida chorva, ular ortidan esa ho'kiz aravalarda xotin-xalaj, keksalar va yosh bolalar karvoni, tuyalarda uy-ro'zg'or asbob-anjomlari ortilgan jamoaning ko'chmas mulk karvoni soqchilar qurshovida yo'lga chiqqanlar.

Yangi makon yaylovlarida yem-xashak zahirasi tugagach, boshqa bir yangi yaylov axtarish boshlanadi. Bunday ko'chish manzarasi ko'chmanchi chorvachilik xo'jaligining an'anaviy turmush tarziga aylanib, bu ko'chmanchi chorvachilik bosqichining xarakterli xususiyatini anglatadi.

Yangi tayyorlangan joy suvga yaqin, qishki sovuq shamoldan panaroq, yem-xashakka boy maskan bo'lmog'i kerak. Yangi makonda birinchi tiklangan yurt(qora uy) qabila sardoriga tegishli bo'lib, unga tig'iz yonma-yon qilib, uning yaqinlariga tegishli yurtalar tiklanadi. Natijada, doira shaklidagi bir "shahar" qad ko'targandek bo'ladi. Bosh sardor yurtasi peshtoqiga qabila ittifoqining tamg'asi – bayrog'i osib quyiladi.

Doira shaklida tarkib topgan yurtalar o'rami maydonida ichki bozor - turli xil hunarmandchilik ustaxonalari va savdo rastalari tarkib topadi. Kundalik xo'jalikka kerakli sog'in sigirlar, ularning buzoqlari maskan doirasidagi molxonalarga joylashtiriladi. Chorva mulkining asosiy qismi yurtalar tashqarisida tarkib topgan qo'tonlarda saqlangan. Bularning barchasi ko'chmanchi chorvachilik bosqichiga xos yashash tarzini anglatadi.

Sovet davri tarixshunosligida ko‘chmanchi chorvachilikning kelib chiqishini ilk temir davri tarixiy jarayonlari bilan, ya’ni jamiyatning “harbiy demokratiya” bosqichi bilan bog‘lash an’anaga aylangan edi. Endilikda esa bu tub o‘zgarishlar rosa ming yil avval sodir bo‘lganligi aniqlandi. Bu tub o‘zgarishlar zaminida, birinchi navbatda, uy hayvonidan transport vositasi sifatida foydalanishga o‘tish yotadi. Ayniqsa, ot, ho‘kkiz, tuya va eshakdan transport vositasi sifatida foydalanishga o‘tilgach, chorvachilikning keskin rivojlanishiga, uning tarkibida yilqichilikning paydo bo‘lishiga olib keladi. Bu esa oqibatda davlatchilikning kelib chiqishiga xizmat qilgan.

Foydaniilgan adabiyotlar.

1. Дьяконов И.М. Восточный Иран до Кира. с. 137-144.
2. Гулямов Я.Г. История орошения Хорезма с древнейших времен до наших дней. – Т., 1957. С. 35.
3. Григорьев В.В. О скифском народе саках. – М., 1871. С. 19-20.
4. Толстов С. П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Тошкент.Фан.1964. 386 б.
5. Толстов С. П. Қадимги Хоразм маданиятини излаб. Тошкент.Фан.1964. 386 б.
6. Першиц А.И. К вопросу о социальных отношениях у кочевников. Основные проблемы африканистики: Этнография. История. Филология. - М., Наука, 1973. - С. 3-23. 7. Сальников К.В. Очерки древней истории Южного Урала. –М., 1967. С. 343
7. Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы // МИА, 1959. - № 73
8. Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы // МИА, 1959. - № 73 76
9. Ахмедов Б.А. Государство кочевых узбеков. Москва - 1965. Ўша муаллиф. Ўзбек улуси. Т.: 1992.
10. Андрей Лизлов. История скифов. 1787. Қайта нашр қилинди: Москва, 1990.
11. Геза Куун.Куманикус Кодекси. 1881. Кипчакские языки: куманский и армяна-кипчакский. Изд. “Наука”. Алма-Аты, 1987
12. Габаши Х.Г. История туркских народов. 1909. с.54. Ўзбекча нашри: Ҳасан Ато Абуший. Турк қавмлар тарихи. “Чўлпон” нашриёти. Тошкент, 1993.
13. Аҳмад Заки Валиди Тўғон. История тюркоа и татар. Казан, 1912.
14. Амонжолов А.С. История и теория древнетюркского письма. Алматы, 2003; Мизиев И.М. Шаги к истокам этнической истории Центрального Кавказа.. Налчик, 1986, стр. 35-56, 123-138; Лайпанов К.Т. , Мизиев И.М. О происхождении туркских народов. Черкезск. 1993, стр. 45-86.